

**Yosh yozuvchilarning asarlarini nashrga tayyorlash va chop etish
uchun grant ajratish tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

I bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu nizom tanlov asosida yosh yozuvchilarning asarlarini nashrga tayyorlash va chop etish uchun grant ajratish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

eng sara loyihalarni aniqlash bo‘yicha tanlov – grant olishga talabgor yosh yozuvchilarning ijodiy loyihalari orasidan xalqimiz ma’naviyati va milliy yuksalishiga hissa qo‘shadigan, yuksak g‘oyaviy-badiiy qiymatga ega loyihalarni saralab olishga qaratilgan tanlov;

ijodiy loyiha – bir yoki bir necha ijodkorlar tomonidan ushbu nizomning 5-bandida belgilangan yo‘nalishlar doirasida nasr, nazm, dramaturgiyaga oid badiiy asar yoki asarlar to‘plami;

grant olishga talabgor yosh yozuvchilar – o‘ttiz bir yoshdan oshmagan, badiiy asar yaratish borasida ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, yaratgan badiiy asarlari OAVlarda e‘lon qilingan yoki kitob shaklida chop etilgan, asarlari asosida kinofilm yoki spektakllar yaratilgan muallif – ijodiy uyushmalar, OAVlari, nashriyotlar tavsiyanomasiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;

Vasiylik kengashi – tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvardagi “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholining kitob o‘qishga qiziqishini orttirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–9-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg‘armasi Vasiylik kengashi;

Ekspertlar guruhi – Vasiylik kengashi tavsiyasi asosida grant olishga talabgor yosh yozuvchilarning ijodiy loyihalarini ko‘rib chiqib, ular yuzasidan xulosa berishga jalb etiladigan, Yoshlar ishlari agentligi bilan tuziladigan shartnoma asosida faoliyat yurituvchi mutaxassislar (adiblar, adabiyotshunoslar, nashirlar va boshqalar)dan iborat guruh;

grant – yosh yozuvchilarga ijodiy asarini nashrga tayyorlash va chop etish uchun Yoshlar ishlari agentligining Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) hisobidan ajratiladigan mablag‘.

**II bob. Yosh yozuvchilarga grant ajratish bo‘yicha tanlov
tashkil etish**

3. Yosh yozuvchilarga grant ajratish bo‘yicha tanlov (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) har yili bir marta o‘tkaziladi, uni o‘tkazish muddati Vasiylik kengashi tomonidan belgilanadi hamda ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinadi.

4. Tanlov quyidagi uch bosqichda tashkil etiladi.

Birinchi bosqichda tanlov e'lon qilingan sanadan boshlab, bir oy davomida grant olishga talabgor yosh yozuvchilar e'londa ko'rsatilgan elektron manzilga elektron shakldagi quyidagi hujjatlar taqdim etadi:

- Vasiylik kengashi nomiga ariza;
- ijodiy asari (qoralama nusxasi);
- talabgor yosh yozuvchiga berilgan ijodiy uyushma, OAV yoki nashriyot tavsiyanomasi;
- taniqli adiblarning ijodkor haqida fikrnomalari (ixtiyoriy);
- ijodkorning ushbu davrga qadar OAVda e'lon qilingan, kitob shaklida chop etilgan asarlari yoki asarlari asosida yaratilgan kino va spektakllar videotasviri (ixtiyoriy);
- ijodkorning erishgan yutuqlari, asarlari uchun olgan mukofot va unvonlari haqidagi hujjatlardan nusxalar (ixtiyoriy);
- shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar (pasport yoki ID nusxasi).
- ijodkorlar faoliyati yoki ijodiy loyihasi to'g'risida boshqa qo'shimcha hujjatlarni ham taqdim qilishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda Ekspertlar guruhi tomonidan bir oy muddatda yozuvchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar ko'rib chiqiladi va ijodiy asarlarni saralaydi.

Taqdim etilgan asarning ushbu Nizomning 5-bandida keltirilgan mavzular bo'yicha yaratilganligi, shu jumladan, xalqimiz ma'naviyati va milliy yuksalishiga xizmat qilishi, o'ziga xosligi va o'zbek kitobxonlarini qiziqtiruvchi jihatlarga ega ekanligi va boshqa ijobiy ahamiyatga molik tomonlariga e'tibor qaratiladi.

Ushbu bosqich yakuniga ko'ra 20 tagacha eng munosib ijodiy loyihalar tanlab olinadi, ularning har biri haqida xulosalar yoziladi hamda Vasiylik kengashiga ushbu asarlar uchun grant ajratish tavsiya etiladi.

Uchinchi bosqichda o'n besh kun ichida Vasiylik kengashi tomonidan tanlov yakunlari bo'yicha Ekspertlar guruhi axborotlari tinglanadi, xulosalari ko'rib chiqiladi hamda yakuniy qaror qabul qilinadi.

5. Yosh yozuvchilar yaratadigan asarlar uchun quyidagi mavzu yo'nalishlari tavsiya etiladi:

- buyuk ajdodlarimiz, alloma va mutafakkirlar hayoti va faoliyati, qoldirgan ma'naviy merosining yaratilish tarixi, mehnat va mashaqqatlari;
- xalqimizning tarixiy ildizlari, davlatchilik tarixi, o'tmishdagi buyuk jasorat va qahramonliklari, erk-ozodlik yo'lidagi kurashlari va boshqa ezgu sa'y-harakatlari;
- xalqimizga xos xarakter, milliy qiyofa, ilm-ma'rifat, qadriyat, urf-odat va an'analarimiz mazmun-mohiyati (o'tmish va bugun o'rtasida buzilmas ko'prik vazifasini o'tashi);

– tinchlik, birdamlik, adolat, haqiqat, do‘stlik, bag‘rikenglik, halollik, qanoat va boshqa ezgu fazilatlar va g‘oyalar;

– umuminsoniy qadriyatlar hamda ularning zamonaviy dunyoda tutgan o‘rni va ahamiyati;

– yoshlar hayoti, ularning orzu-intilishlari, o‘y-hayollari, muammolari, ular orasida uchraydigan illatlar;

– zamondoshlar taqdiri, hayotimizning turli jabhalarida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, muhim voqeliklar, o‘zgarishlar, yangiliklar, shuningdek, jamiyatda uchrab turadigan muammolar, illatlar;

– mamlakatimiz taraqqiyoti, tinch-osoyshta va farovon hayotimiz hamda xalqimizning ma‘naviy yuksalishi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatayotgan turli kasb-hunar egalari, zamon qahramonlari hayoti va faoliyati.

6. Vasiylik kengashi loyiha yakunida yosh ijodkorlar tomonidan yaratilgan hamda kitob shaklida chop etishi uchun taqdim etilgan badiiy asarlarni saralashda quyidagilarga e‘tibor qaratadi:

– badiiy asarda umuminsoniy qadriyatlar va ezgu g‘oyalar ilgari surilgani hamda u jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy-ma‘rifiy taraqqiyotiga xizmat qilishi;

– mamlakatimiz tarixi va bugungi kuni, ajdodlarimiz hayoti, faoliyati, ma‘naviy merosi haqida yolg‘on, noxolis va g‘arazli axborot mavjud emasligi, xalqimizga xos qadriyatlar buzib ko‘rsatilmaganligi;

– mamlakatimiz xavfsizligi va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka tahdid qiluvchi, fuqarolar tinchligi, millatlararo va dinlararo totuvlikka raxna soluvchi buzg‘unchi g‘oyalar, mafkuralar, oqimlar, shuningdek, buzg‘unchi tashkilotlar faoliyati targ‘ib etilmaganligi;

– yoshlar tarbiyasini buzuvchi zo‘ravonlik, axloqiy buzuqlik, jinoyatchilik kabi illatlar, shuningdek, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi zararli illatlar ilgari surilmaganligi;

– badiiy asarning adabiy me‘yorlarga rioya qilingan hamda zamonaviy adabiyot yutuqlaridan foydalangan holda yaratilganligi, mualliflik huquqi qoidalariga rioya etilganligi.

III bob. Yosh yozuvchilarga grant ajratish tartibi

7. Vasiylik kengashining tanlov yakunlari yuzasidan chiqargan qarori asosida o‘n kun muddatda yosh yozuvchilarning asarlarini nashrga tayyorlash va chop etish uchun grant ajratish to‘g‘risida Yoshlar ishlar agentligi direktorining buyrug‘i chiqariladi.

8. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining 71-moddasi 1-qismi 5-kichik bandiga asosan asar muallifi va u tanlagan nashriyot o‘rtasida tuzilgan litsenziya shartnomasiga muvofiq muallifning asarini nashrga tayyorlash va chop etish xizmatini ko‘rsatish uchun ushbu nashriyotga Yoshlar

ishlari agentligi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida grant mablag'lari ajratiladi.

9. Bunda ushbu asar kamida 1 000 nusxada chop etiladi, chop etilgan asarning 10 foizi muallifga beg'araz ajratiladi, qolgan 90 foizi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tegishli buyrug'i bilan beg'araz tarqatiladi.

10. Grant ajratilgan mualliflar 3 yildan so'ng ushbu Nizomda belgilangan tartibda grant ajratishni so'rab murojaat qilishi mumkin.

IV bob. Yakuniy qoidalar

11. Tanlovning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida Yoshlar ishlari agentligi rasmiy veb-sayti va OAVlarda jarayon yoritib boriladi.

12. Tanlov ishtirokchilari tomonidan bildirilgan e'tiroz va shikoyatlar qonunchilikda belgilangan tartibda Vasiylik kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi.